

МУГАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҶ



ISSN 2181-7138

№ 1 / I 2021 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия аъзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Өсербай ӨЛЕҶОВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Кеңесбай ДАУЛЕТЯРОВ
Гўлнара ЖУМАШЕВА
Батырбек КАИПБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Сарсен КАЗАХБАЕВ
Гулмира КАРЛЫБАЕВА
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Зухра СЕИТОВА
Айдын СУЛТАНОВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Ризамат ШОДИЕВ
Ойбахор ШАМИЕВА
Бекзод ХОДЖАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсор ЭРТАШЕВА

Шўлкемлестириўшилер:

**Қарақалпақстан Республикасы
Халық билимлендириў
Министрлиги, ӨЗПИИИ
Қарақалпақстан филиалы**

**Ўзбекстан Республикасы
Министрлер Кабинети
жанындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қарары менен
дизимге алынды**

**Қарақалпақстан Баспа сўз ҳәм
хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гуўалық
берилген.**

**Мәнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz**

Журналға келген мақалаларға жуўан қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм ўзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шарт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлўматларға автор жуўапкер.

МАЗМУНЫ

БАСЛАЎҲИ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Mardonov Sh.Q., Abdullayev A.A. Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab hamkorligi	4
Mahmudova D.B. Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi	8
Shanasirova Z.Yu. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash hamda nutqini rivojlantirish	13
Abdullayeva M.Dj. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar	17
Narimbayeva L.K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishning ahamiyati	20
Nosirova R.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa ta'limi va tarbiyasining mohiyati ..	22
Xolmatova S.K. Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda Sharq mutafakkirlari fikrlaridan foydalanish ahamiyati	26
Maripova N.H. Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya	28
Sanakulova A.R. Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarida huquqiy tarbiyani rivojlantirish	31
Teshabayeva Z.S. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya maqsadi	34
Nasirova Z.X. O'yin turlari: ijodiy o'yinlar, qoidali o'yinlar, milliy o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari	38
Shanasirova Z.Yu. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning ahamiyati	43
Jo'raboyev A.B. Maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy qadriyatlarni singdirish amaliyoti	48
Abdullayev A.A. Maktabgacha ta'lim muassasalarida rahbarlik qilish va tashkil etishning zamonaviy usullari	51
Achilova M.S. Maktabgacha ta'lim muassasalarida estetik tarbiyaning mazmuni	55
Ochilov F.I., Xusanova N.B. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy pedagogik kompetentsiyalarni shakllantirish talablari	58
Narimbetova Z.A., Asqarova N.J. Boshlang'ich sinf matematika darslarida didaktik o'yinlarning ahamiyati	62
G'ulomova X. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida maqollar estetikasi	67
Умарова З.А. Бошланғич таълимда педагогик жараён	70
Жабборова О.М., Сайидғаниева З.С. Бошланғич таълим педагогикаси: мазмун ва моҳият	74
Quzmanova G.B., Ergasheva M.E. Umumiy o'rta ta'lim maktablari ota-onalar yig'ilishini samarali tashkil etish	78
Мамадалиев К.Р. Бошланғич таълим йўналиши ўқув фанлари тузилмаси ва замонавий ўқув адабиётларини яратиш принциплари	80
Тожибоева Г.Р., Крымская Э. Проблемы развития творческих способностей в процессе становления будущего учителя начальных классов	86

ТИЛ ХАМ ӘДЭБИЯТ

Матчинов С., Холикулова Ф. Ўқувчиларнинг нуткий кўникмаларини шакллантиришда матнинг лингводидактик таҳлили	91
Шерматова У.С., Жабборова О.М. Самостоятельное чтение и интерпретация правды жизни	95

В статье приводятся конкретные примеры важности дидактических игр на уроках математики в начальной школе в современный век науки и технологий.

SUMMARY

The article provides specific examples of the importance of didactic games in mathematics lessons in elementary school in the modern age of science and technology.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARIDA MAQOLLAR ESTETIKASI

G‘ulomova X.

Toshkent viloyati ChDPI “Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası katta o‘qituvchisi

Таянч сўзлар: maqol, hikmatli gap, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalash ko‘nikmalari, badiiy til vositalari, tarbiya vositasi, estetik zavq.

Ключевые слова: пословицы, поговорки, сравнения, обобщения, навыки обобщения, средства художественного языка, образовательные средства, эстетическое удовольствие.

Key words: proverbs, sayings, comparisons, generalizations, summarizing skills, artistic language tools, educational tools, aesthetic pleasure.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Biz yashayotgan Yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan” [1], degan fikrlari xalqning asrlar davomida orttirgan hayotiy tajribasi asosida yaratilgan maqollarga ham tegishlidir. Maqollar xalqning turmush tajribalari zaminida tug‘ilgan va donoligi ifodalangan qisqa, ko‘pincha she‘riy shakldagi hikmatli so‘zlar, chuqur ma‘noli iboralardan tashkil topgan og‘zaki ijod namunasi bo‘lib, g‘oyat muhim badiiy-estetik tarbiyaviy vazifani bajarishga qaratilgandir. “Maqol – arabcha, maqola, kichik asar; so‘z, nutq. Hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo‘lgan ixcham, obrazli, tugal ma‘noli va hikmatli ibora, gap” [2, 569]. Maqollarning mavzu doirasi nihoyatda keng, unda hayotning turli masalalari o‘z aksini topgan. Ko‘pincha o‘git, pand-nasihat xarakterida bo‘ladi. Masalan, “Er haydasang - kuz hayda, Kuz haydamasang yuz hayda”, “Hunari yo‘q kishining, mazasi yo‘q ishining” va hokazo.

Maqollar xalq og‘zaki ijodining qadimiy shakllaridan biri sifatida xilma-xil badiiy ifoda vositalari - ohangdor tovushlar takroridan tashkil topishiga ko‘ra eshituvchining diqqatini tortadi. Katta hayotiy va ijodiy tajribaga ega bo‘lgan so‘z ustalarining chuqur ma‘noli hikmatli so‘zlari ham ko‘pincha xalq maqollariga o‘xshab ketadi. Masalan, A. Navoiyning “Mahbub ul-qulub”da aytgan bir qancha hikmatli so‘zlari shular jumlasidandir: “Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur”, “Tilga ixtiyorsiz - elga e‘tiborsiz” va boshq.

Maqollar badiiy asar personajlari nutqida, ba‘zan asar sarlavhalarida, badiiy asar voqealari yakunida qo‘llanadi. Bir maqol butun asar g‘oyasini ochib berishi mumkin.

Ma‘lumki, bola maktabga kelgunga qadar ota-onasi nutqida maqollarni eshitadi va unda nima deyilganini ma‘lum darajada anglaydi. Hatti-harakatini maqolda aytilgan tanbeh yoki rag‘bat asosida boshqaradi.

Shunga ko‘ra, ta‘lim jarayonida ham tez-tez maqollarga murojaat qilish ehtiyoji tug‘iladi. O‘quvchilar boshlang‘ich sinflardan boshlab turli uslubdagi matn va sujetli rasmlar mazmuni bilan bog‘liq maqollarni o‘qiydilar, ularning ma‘nosini izohlaydilar.

Boshlang'ich sinflarda matn ostida berilgan maqollarni o'qish va o'rganish, tahlil qilish asar o'qilib, tahlil qilinib bo'lingach amalga oshiriladi. Chunki asar mazmuni va unda yozuvchi aytmoqchi bo'lgan g'oyani tushunmay turib, maqolning ma'nosini izohlash va anglash qiyin bo'ladi. Ba'zi holatlarni asar mualliflari ham maqollar orqali ochib beradilar. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda maqollarni o'rgatish o'qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi. Har bir darsga tayyorlanayotganda asar mazmuniga va unda ilgari surilgan g'oyaga mos maqol ustida qanday mashq uyushtirishni rejalashtirib oladi. Maqollarning ma'nosini "Maqollar to'plami", izohli lug'atlardan foydalanib ochib beradi.

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklarining ayrim bo'limlari ham maqollar bilan nomlangan. Masalan, "Xalq o'giti - baxt kaliti", "Hunar, hunardan rizqing unar", "Odob - insonga husn" kabi.

Bo'lim yuzasidan umumlashtiruvchi darslarda o'quvchilarni xalq maqollariga murojaat qilishga undovchi savol-topshiriqlarga katta o'rin berish lozim. Masalan, "Odob insonga husn" bo'limida "Qanoatda - barakat" maqolining ma'nosini tushuntirib bering" va hokazo.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklarida Vatan, tabiat, o'tmishni, buyuk allomalarni o'rgatuvchi mavzular ko'lamini sinfdan sinfga o'tgan sari kengaytirib boriladi. Ularda mavzu bilan bog'liq maqollarga alohida e'tibor qaratiladi. O'qituvchi sinflar kesimida Vatan haqida o'rganilgan maqollarni jadvallarga joylab borishi va har bir sinfdan bir mavzu doirasida o'rganilgan maqollarning ma'nosidagi o'xshashlikni, shaklidagi farqni aniqlatishi o'quvchilarda taqqoslash, umumlashtirish va xulosalash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Maqolning mazmunini izohlash, yod oldirishdan tashqari, ularning matnidagi so'z va birikmalar, ohangdosh so'zlar, qarama-qarshi ma'noli so'zlar, ko'chma ma'noli so'zlar, maqolda takrorlanib kelayotgan so'zlar, badiiy til vositalari ustida ish olib borish talab etiladi. Masalan, 1-sinf «O'qish kitobi» dagi "Ona yurtning - oltin beshiging" maqoli yuzasidan "Yurt" so'zini qaysi so'zlar bilan almashtirish mumkin?", "Maqolda ona yurt nimaga tenglashtirilayapti? Nima uchun?", "Beshik oltin bo'ladimi?" kabi savollar o'quvchilarni fikrlashga undaydi, "oltin beshik" birikmasida nima uchun beshik oltinga tenglashtirilayotganini izohlashga harakat qiladilar.

Bundan tashqari, "Eling senga cho'zsa qo'l, Unga doim sodiq bo'l" maqolining ma'nosini o'rganilayotgan bo'limdagi asarlardan, bolalar uchun davlatimiz tomonidan yaratib berilgan sharoitlardan misollar keltirib izohlashga undash o'quvchilarni mas'uliyatni his qilish ruhida tarbiyalasa, "Qo'l cho'zsa" deganda nimani tushundingiz?" kabi savollari tilga nisbatan sezgirlikni tarbiyalaydi.

Maqollar asar g'oyasini ochishda eng qulay vosita sanaladi. Masalan, 2-sinfda "Ish ishtaha ochar" matnidan keyin: "Ish ishtaha ochar, Dangasa ishdan qochar", "Kuch birlikda" matniga "Birlashgan o'zar, Birlashmagan to'zar" maqollari keltirilgan. Asar g'oyasi bilan bog'liq maqollar bilan matn mazmuniga aloqador bo'lmagan maqollarni aralash holda berib, ulardan mosini tanlash topshirig'i ham o'quvchilarni asar voqealariga munosabatini shakllantiradi.

Maqol mazmuni tuzilishi jihatdan oddiy bo'lgan gapda ham ifoda etiladi, lekin maqolda so'zlar tartibi, ohangdosh so'zlarning qo'llanishi, qarshilantirishlar o'quvchi sezgisiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi maqol bilan o'quvchilar izohini taqqoslash orqali maqolning yaratilishi, ya'ni tildan tilga o'tishi jarayonida sayqal topib borishi, bu maqolning ta'sirini kuchaytirishi, yod olishni osonlashtirishi haqida ma'lumot beriladi.

3-4-sinflarda maqollar maxsus darslarda va badiiy asarni o'rganish jarayonida ham muntazam o'rganib boriladi. Bu sinflarda maqollarni o'rganishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirish, to'g'ri va ongli o'qish malakalarini

takomillashtirish, maqollardagi har bir soʻzning va yaxlit maqolning maʼnosini toʻliq idrok etishga erishishdir. Oʻquvchilar oʻqilgan matn ichidan maqollarni, hikmatli soʻzlarni oʻzi mustaqil topa olish koʻnikmasini egallashi, ular yordamida oʻqilgan asarlar yuzasidan toʻgʻri hukm chiqarishga oʻrganishlari zarur.

3-4-sinflarning «Oʻqish kitobi» darsliklaridagi «Xalq ogʻzaki ijodi» boʻlimi tarkibida «Maqollar» mavzusi alohida oʻrganiladi. Bu mavzuni oʻrganishda maqollarning kelib chiqishi, yaratilishi haqida dastlabki elementar maʼlumotlar beriladi. Bunda maqollar xalqning uzoq yillik hayotiy tajribasi asosida vujudga kelganligi, tarbiya vositasi sifatida har bir xalqning milliy maʼnaviyatining shakllanishida muhim vosita boʻlishi haqida dastlabki tushunchalar beriladi. Maqol haqida maʼlumot berish jarayonida «Maqollarni yana qanday nom bilan atash mumkin? («Dono fikr» deb atash mumkin.)

Bu sinflarda oʻquvchilarga «Maqollar» mavzusida berilgan maqollar mazmuniga darslikdan mos asarlarni tanlab, maqolning maʼnosi bilan asarda aytilayotgan fikrning bogʻliqligi izohlatiladi yoki maqol gʻoyasiga mos birona hikoya tuzdiriladi. Masalan, «Bilagi zoʻr birni yiqar, bilimi zoʻr mingni yiqar» maqoliga qaysi asar gʻoyasi mos? («Mardlik va aql yorugʻligi») va hokazo. Yoki: «Elidan ayrilgan yetti yil yigʻlar, Vatandan ayrilgan oʻlguncha yigʻlar» maqoliga Bobur haqidagi «Hidi tilimi va mazasidan» asarini misol qilib keltirish mumkin. «Hidi tilimi va mazasidan» asari yakunida berilgan «Harchand oʻqibsan – bilimdonsan, Agar amal qilmading – nodonsan» maqoli keltirilgan. Mazkur maqolni izohlashda uning mazmunida asardagi qaysi holat bilan bogʻliqlik bor? savolini oʻrtaga tashlash orqali oʻquvchilarning adabiy tahlil koʻnikmalarini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishish mumkin. Oʻquvchi savolga javob tayyorlash uchun asarni qayta koʻzdan kechirib oʻqiydi (Boburshoh qovunni hidlay-hidlay boʻyiga mast boʻlib, uni tilimlamoqchi boʻlibdi. Qovun pichoq tegar-tegmasdan tarsillab yorilib ketibdi... Pichoq tegar-tegmay yorilib ketadigan qovun faqat men bilgan oʻlkadagina bitadi. Sen mening savolimga toʻgʻri javob bermading, qahrim qattiqligidan qoʻrqmaysanmi?) [3, 94]. Shu jarayonda oʻquvchi oʻz fikrlarini asardagi maqolga mos oʻrnini qayta hikoyalab asoslaydi. Soʻngra «Asar gʻoyasiga oid maqol aytib», «Maqollar asosida krossvord tuzing, rebus yaratib» kabi topshiriqlar beriladi, «Maqollar aytish musobaqasi», «Maqollar mushoirasi» kabilar tashkil qilinadi.

Maqollarni oʻrganishda koʻrgazmalilik, nazariyaning amaliyot bilan bogʻliqligi, taʼlim-tarbiyaning birligi tamoyillariga amal qilinadi.

Maqollar yuzasidan rebus yechish.

1) [oltin rasmi] [oʻt rasmi]da bil[in rasmi] [ari rasmi] (r→d),

[odam rasmi] – [mehnat qilayotgan kishi rasmi]da.

2) [koʻz rasmi](k)i [100]sizning [koʻz rasmi](k→s)i [tuz]siz.

3) Bil[ari rasmi](r→g) [toʻr rasmi](t→z) [1]ni yi[qor rasmi](o→a), [bol](o→i)imi [boʻr rasmi] (b→z)[1000]ni.

Mazkur rebus asosida yaratilgan maqol asosida tarbiyaviy xulosa chiqariladi.

Natijada oʻquvchilar tabiat goʻzalliklaridan zavqlanadilar, gullarga, qushlarga, barcha jonzoʻtlarga mehr-shafqat bilan qaraydilar, adabiyotni, musiqani, tasviriy sanʼat asarlarini nozik tushunadilar, ular mazmunidagi gʻoyalarni teran idrok etadilar. Shuningdek, qaygʻuli, fojeali hodisalardan ham saboq oladilar, ruhiyatlari poklanadi [4].

Adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvardagi maʼnaviy-maʼrifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bagʻishlangan videoselektor yigʻilishida soʻzlagan nutqid.

2. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. – T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2-jild. 569- bet.

3. Matchonov S., G'ulomova X. va b. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. – T.: Yangiyo'l poligraf servis. 2020.

4. Shermatova U.S. Cho'lpon ijodida tabiat estetikasi. Academic research in educational sciences volume 1 | issue 3 | 2020 issn: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804 Academic Research, Uzbekistan 338 (beti) www.ares.uz.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda maqol ustida ishlash usullari, xususan, maqollar mazmunini sharhlash, so'z ustida ishlash, taqqoslash, mustaqil fikrlash, xulosalash maqollarning janr xususiyatlari bilan bog'liqlikda ko'zdan kechiriladi.

РЕЗЮМЕ

В статье исследуются методы работы над пословицей в начальной школе, в частности, толкование содержания пословиц, работа над словами, сравнение, самостоятельное мышление, обобщение в связи с жанровыми особенностями пословиц.

SUMMARY

This article examines the methods of working on proverbs in primary school, in particular, interpreting the content of proverbs, working on words, comparing, independent thinking, summarizing in relation to the genre features of proverbs.

БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ПЕДАГОГИК ЖАРАЁН

Умарова З.А.

Тошкент вилояти ЧДПИ “Бошлангич таълим” кафедраси ўқитувчиси

Таянч сўзлар: таълим, бошлангич, тажриба, тарбия, педагогика, конфликтология, билим, кўникма, малака, дастур.

Ключевые слова: образование, начальное, опыт, воспитание, педагогика, конфликтология, знания, навыки, квалификация, программа.

Key words: education, primary, experience, upbringing, pedagogy, conflictology, knowledge, skills, qualifications, program.

Ўзбекистон янги тараққиёти даврида бошлангич таълимни ривожлантириш ва унда бошлангич таълим педагогикаси асосларига таяниш муҳим йўналишлардан ҳисобланади. [1]

Бошлангич таълимни ташкил қилиш бўйича Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисида”ги Қонунининг 9-моддасида қуйидагилар белгиланган:

- умумий ўрта таълим ташкилотининг биринчи синфига болалар улар етти ёшга тўладиган йилда қабул қилинади;
- бошлангич таълим таълим олувчиларда умумий ўрта таълимни давом эттириш учун зарур бўлган саводхонлик, билим, малака ва кўникмалар асосларини шакллантиришга қаратилган. [2]

Мазкур ҳуқуқий асос бошлангич таълимни ташкил этишда нималарга эътибор бериш кераклигини белгилайди. Шу жиҳатдан қуйидагиларга эътибор беринг:

1. Саводхонлик. Бошлангич таълимни ташкил этишдаги бу вазифанинг маъноси шуки, 7-11 ёшли ўқувчиларда билим олиш туйғусини ривожлантириш ва уларни ижтимоийлаштиришдан иборат. Ўқувчиларда билим олишга иштиёқ табиий бўлади, бошлангич синф ўқитувчисининг вазифаси ана шу туйғунини ривожлантириш ва ўқувчиларнинг инстинктини ижтимоийлаштиришдан иборат. Айнан мана шу икки вазифа бошлангич синф ўқитувчисининг саводхонлик масаласини ҳал этишдаги муваффақиятларига олиб келади.